

MASHRAB G‘AZALLARIDA “ALIF” VA “BE” HARFLARINING MA’NOLARI HAQIDA

Qo’chqoraliyeva Fotima Zokirjon qizi

NamDU filologiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Qo’ziyev Umidjon**, PhD., dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Hazrat Mashrab lirikasida qo‘llangan alif ham be harflarning qo‘llanish o‘rinlari, badiiyat yaratish usullaridan biri bo‘lgan harf (kitobot) san’atidan foydalanish mahorati va ayrim g‘azallardagi alif va be harflarining qo‘llanish maqsadlari ko‘rib chiqiladi. Shoир ijodining xalqonaligi va shu bilan birga irfoniyligida ushbu vositalarning o‘rni yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Hazrati Mashrab, badiiy tahlil, harflar san’ati, g‘azal, mustazod, alif, be.*

ABOUT THE MEANINGS OF THE LETTERS "ALIF" AND "BE" IN MASHRAB'S GHAZALS

Annotation: *In this article, the places of use of “alif” and “be” letters used in the lyrics of Hazrat Mashrab, the skill of using the art of letters (kitobot), which is one of the methods of creating art, and the purposes of using the letters alif and be in some ghazals. will be considered. The role of these tools in the popular and at the same time mysticism of the poet's work is highlighted.*

Key words: *Hazrat Mashrab, artistic analysis, art of letters, ghazal, mustazad, alif, be.*

О ЗНАЧЕНИЯХ БУКВ «АЛИФ» И «БЕ» В ГАЗЕЛЯХ МАШРАБА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются места употребления букв “алиф” и “бе”, используемые в лирике Хазрата Машраба, умение пользоваться искусством букв (китобот), которое является одним из методов создания искусства, и цели использования букв алиф и бэ в некоторых газелях будут рассмотрены. Выделена роль этих инструментов в популярном и в то же время мистицизме творчества поэта.*

KIRISH.

Rahimbobo Mashrab 17-asr o‘zbek shoiri, so‘fiy mutafakkirdir. Uning asarlari o‘zbek adabiyotida katta o‘rin tutadi, shuningdek, asarlari matni eski o‘zbek tilining namunasi sifatida diqqatga sazovor.

Kitobot yoki harflar san’ati – arab alifbosidagi har bir harfning shakli, ayrim so‘zlarning boshlang‘ich harfi bo‘lib kelishi, harf nomidagi shakldoshligini e’tiborga olib so‘z o‘yini qilish, bir bayt orqali turli mazmunni ifodalay olsih san’atidir.

Mashrab she’riyatida harflar har xil tarzda qo‘llaniladi. Ularning orqali u jonli va ta’sirchan obrazlar yaratadi, diniy va tasavvufiy g‘oyalarni ifodalaydi, shuningdek, jamiyatdagi turli muammolarni fosh etadi. Uning g‘azallarida harflarning o‘ziga xos ovozi, shakli va raqamli qiymati mavjud bo‘lib, ular ba’zan maxfiy ma’nolar yoki allegorik ifodalarni anglatadi.

Mashrabning harflar san’ati bilan bog‘liq ijodi ko‘p qirrali bo‘lib, uning g‘azallarida o‘zbek tilining boy so‘z san’ati va go‘zal badiiyati yorqin namoyon bo‘ladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan ushbu san’at g‘azal mavzusini teranlashtirish va so‘z o‘yini qilish kabi jihatlar orqali o‘zining noyobligini ko‘rsatib turadi. Mashrabning g‘azallarida harflar san’ati tasavvufiy va sayr-ul-suluk (ruhiy salohiyat) tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Har bir harf tasavvufda ma’lum bir ma’noga ega, sirli ilohiy haqiqatlarni ifoda etish vositasi sifatida qaraladi. Mashrab o‘zining ijodida kishi ichki dunyosini va tasavvufiy bilimni anglatuvchi ma’lum harflarni ramz sifatida ishlatadi. Shuningdek, islomda bu harflar Qur’onda ham qo‘llaniladi. Ular “Huruful muqattoat” (“kesilgan harflar”) yoki “Huruful hijoiy” (“alifbo harflari”) deb ataladi va ularning mohiyati izoh berilmaydi.

Mavzuning o‘rganilishi.

O‘zbek adabiyotida she’riy san’atlar Ilmi bade’ nomi bilan o‘rganiladi. Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar dastlab arab adabiyotshunosligida Nasr binni Hasanning «Mahosin ul kalom», Ibn al-Mo’tazning «Kitob ul-bade’», Quddama ibn Ja’farning «Naqd ush-she’r» kitoblarida, Markaziy Osiyoda Rashididdin Votvotning «Hadoyiq us -sehr», Shamsiddin Roziyning «Al mo’jam...», Atoulloh Husayning «Badoye’ us-sanoye’» asarida kuzatiladi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida A.Hojiahmedov¹, R.Orzibekov², A.Asallayev³, Y.Is’hoqov⁴larning tasnif va tahlillari nazariy manba sifatida tadqiqotlarda qo‘llaniladi.

¹Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент, Шарқ, 1999. 103-105-бетлар; Хожиахмедов А. Шеър санъатларини биласизми? –Тошкент, Шарқ, 2001.

²Орзивеков Р.Шеърий санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000.

³Асаллайев А. ва бошқалар. Бадиий санъат жозибаси. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2005.

⁴Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент, Зарқалам, 2006.

Kitobot she'riy san'at to'g'risida filologiya fanlar doktori, professor Rahmonqul Orzibekov "O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat" nomli kitobida quyidagilarni yozadi: "Hurufi hijo – she'r yaratish usullaridan biri bo'lib, undagi qoida va talabga ko'ra, she'r yozmoqchi bo'lgan shoir shakl va mazmunga zarar yetkazmagan holda har bir band va misra boshida arab arab alifbosining ma'lum harfini bir hijo – bo'g'in qilib ishlatadi va bu mazkur hijo – harfdan keyin keladigan so'zning asar bandi yoki misra boshida hijo bo'lgan harf bilan boshlanishini ta'minlash lozim. Bunday asarlar arab alifbosi soniga mos holda 28 yoki fors-tojik alifbosining 32 harfiga teng misralardan iborat bo'ladi".⁵

Metodlar. Mavzuni yoritishda tavsiflash, badiiy tahlil, qiyoslash va chog'ishtirma metodlardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar.

Mashrabda "Hurufi hijo" da yozilgan she'rlarining soni to'rtadir. Bular g'azal, mustazod, muxammas va masnaviy yo'llarida yozilgan.

G'azalda hurufi hijolarning tartibi quyidagicha:

*Ey – alifdek qomatingdan ibtido qildim bukun,
 Be – baloyi dog'i dardning dilga jo qildim bukun.
 Te – tilovat qilgan erdim oyati ruxsoringni,
 Se – savobi hatmi Qur'on intiho qildim bukun.*

G'azalning tugallanish baytlari:

*He – hazil ermas kishi dog'ini pinhon aylasa,
 Lom – alif – lola sifat choki qabo qoldim bukun.
 Yo – yorim, dilbarimga dudi ohim sardini,
 Hamza – sokin aylabon so'i samo qildim bukun.
 Pardayi ismatda saqla Mashrabi bechorani,
 Dilrabo, nomahramni oshno qildim bukun.*

G'azaldagi "ey" yoki "ay" nido so'zlarining birinchi harfi "a" – "alif"dir. Alifdan murod, raqamda ifodalanganda, birdir, ya'ni Alloh bittadir. Alifning qomatga o'xshatilishi Uning rost va to'g'riliqiga ishoradir. Birinchi, ikkinchi misralardagi "be"dan murod balo va ofat, kulfat va ayriliqdir.

⁵ Машраб. Девон. – Тошкент: Sharq, 2019 – 26-b.

Mashrabning hurufi hijoda yozgan mustazodi Muhammad (s.a.v) hazratlarini sifatlash, maqtash va madh etishga ba'g'ishlangan na'ti Nabiydir. Mustazodning boshidan to oxiriga qadar Payg'ambarimiz (s.a.v) ta'rif, tavsif va vasp etiladilar. Mustazodning dastlabki baytlari quyidagicha boshlanadi:

Ey – Alif ilmi qadiming Muhammad,

Be – Bori taolo.

Te – tavbayi har nafase ohi Muhammad,

Bo 'lgaymi shafoxoh?

Se – savvobi bilim qolmadi ham sabru qarorim,

Yo 'l keldi xatarlik,

Jim – Jomi bili ma'rakaoroyi Muhammad,

Bo 'lgaymi madadgoh?

Va oxirgi baytlari shunday tugallanadi:

Lom-alif – lola kabi qirmizi bo 'lubdur.

Ko 'ksumdag'i dog 'im,

Yo – yoyi o 'shal diydayi binoiy Muhammad,

Ajranu aziymo,

G 'urbat chohiga tushti: "Zalamno", dedi Mashrab, –

Monandayin Odam.

Ko 'nglida edi ohi zalamnoyi Muhammad, –

Ul aydi "Zalamno"

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida mustazod janrida eng ko'p va eng benazir asarlar yaratgan shoir Mashrab hisoblanadilar. Hozirgacha Mashrabning yigirmadan ortiq mustazodlari borligi aniqlandi.⁶

Mashrabning g'azallarida harflar bir qator ramziy ma'nolarni simvolizatsiya qiladi va buni tasavvufiy kontekstda ko'rish mumkin. Masalan:

- Alif: Birlik, Alloha bo'lgan muhabbatni va vahdat-ul vujud (barcha mavjudotning birlik) g'oyasini ifodalaydi. Alif shuningdek, ilohiy donolikka va komillikka intilish ramzi sifatida ham qaraladi.

- Bo: Bismillah iborasining boshlang'ichi, "nomi bilan" degan ma'noni anglatadi va yaratilishning boshlanishi yoki ilohiy ibtido sifatida tushuniladi.

- Jim: Jamiat, jamoat yoki birlashma ma'nolarini anglatishi mumkin, bu esa sufizmning jamaot bilan bog'lanish va ruhiy birdamlik tushunchalariga ishorat qiladi.

⁶ Машраб. Девон. – Тошкент: Sharq, 2019 – 27-б.

– Dol: Uydagi yoki qalbdagi eshikni ifodalaydi, bu eng ichki, shaxsiy va yashirin ruhiy makonlarga kirishga oid istiora yaratadi.

Mashrab g‘azallarida harflar san'ati orqali kuchli tasavvufi falsafani ifoda etgan va o‘zining she'riy obrazlari orqali komil inson sifatida ruhiy rivojlanish yo‘lini namoyish etgan. Har bir harf o‘quvchini o‘ylanishga majbur qiladigan chuqr ma'naviyat va murakkab ramzlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, harflar savol va tafakkur uchun manba sifatida xizmat qiladi, she'rlarni o‘qiyotgan yoki tinglayotgan shaxsga o‘ziga xos tajriba taklif qiladi.

Shuningdek, Mashrabning ijodida har bir harfga badiiy, ma'rifiy izoh berish ko‘p kuzatiladi. Ularning ayrimlari individual qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lsa, ayrimlari ko‘p takrorlanib muayyan an’ana va dunyoqarashga asoslanganligi yuzaga chiqadi.

Shu o‘rinda Mashrabning yuqori ma'rifat va ilm egasi ekanligini ko‘rsatuvchi quyidagi misralarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Kunlardan bir kuni Mashrabning uztozlari aytdilar:

– *Ey o‘g‘lim, bismillah, alif, – deng dedilar.*

Shoh Mashrab:

– *Alif, – dedilar.*

Ustozlari: “Be”deng”, dedilar.

Shoh Mashrab ustozlaridan so‘radilarki, alifning ma’nosi nimadur va “be” ning ma’nosi nima?

Ustozlari achchig‘lanib dedilarki, ey bachayi nodon, san kim, bu ma’no so‘ramoq kim, dedilar. Shoh Mashrab aytdilar: “Ey domla, alifni ma’nosini siz aytmasangiz, man aytaman”, dedilar. Ustozlari aytdilar: “Ey o‘g‘lim, alifning ma’nosi nimadur?” Shoh Mashrab aytdilar: “Alifning ma’nosi birdur, ul sababdin “be” demasman, mundin o‘tmak xatodur”, – dedilar. Ustozlari bu so‘zni eshitib, hayron bo‘lib qoldilar.

Alifni dilga jo qilmojni bismillordan o‘rgandim,

Shahid qonini to‘kmojni kalomullordan o‘rgandim...

Hama ayturki, Mashrab, muncha ilmni kimdan o‘rganding?

Xudo lutf ayladi, man barchani mavlodin o‘rgandim!

Ushbu qissadan ma’lumki, Mashrab har tomonlama ilmli va o‘z qarorlarida qat’iy tura oladigan yuqori tafakkur egasidir. Mashrab *alifni* aytish orqali Allohning yagona ekanligiga ishorat etgan. *Alif* tasavvufda *vahdat* termini bilan ataladi. Bu bilan yaratganning tanholigiga, qolgan narsalar foniylar va o‘tkinchi ekanligaga ishora qiladi. *Be* harfi esa dunyodagi barcha yaratilgan narsalar, jumladan, insonni ham anglatadi. U mosuvo termini bilan ifodalanadi. *Be* harfi alifbodagi ikkinchi harf hisoblanadi.

Jumladan arablardagi *kun fayakun*, yani “*bo'l dedi va bo'ldi*” iborasi dunyoning yaratilishi haqidadir.

Dunyo tillarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, “*bo'l*” fe'li *be / ve* bilan bilan, ayrim tillar (arab va janub xalqlari tillari)da *kun* va uning fonetik variantlari bilan ifodalaran ekan (1-jadval).

1-jadval

“Be” harfi va “bo'l (moq)” fe'li munosabati

<i>bo'l</i> so'zining muqobillari	Tillar	<i>bo'l</i> so'zining muqobillari	Tillar	<i>bo'l</i> so'zining muqobillari	Tillar
<i>бўл / et</i>	o'zbek	<i>Banō</i>	gujarat	<i>Kun</i>	arab, malta
<i>быть</i>	rus	<i>Vertu</i>	island	<i>Kia</i>	maori
<i>Bēhuni</i>	albancha	<i>Buru</i>	Igbo	<i>Kay</i>	kechua
<i>быць</i>	belarus	<i>Bí</i>	irland	<i>ହୋନା</i> (<i>ho'na</i>)	hind
<i>Budi</i>	bosniya	<i>Ba</i>	Kinyarvande	<i>Ukaña</i>	aymara (efiopiya)
<i>Biti</i>	xorvat	<i>Be</i>	Koreys	<i>huni</i>	Amhar (efiopiya)
<i>Бъда</i>	bolgar	<i>Bi</i>	Krio	<i>Khalani</i>	chicheva
<i>Být</i>	chex	<i>Be</i>	kurd	<i>ho</i>	Malagavi
<i>Være</i>	dat	<i>pen</i>	lao	<i>huna</i>	Nepal
<i>Баў</i>	mo'g'ul	<i>Būk</i>	Litva		
<i>Være</i>	Norveg	<i>Okubeera</i>	angola		
<i>Vay</i>	pashto	<i>Буду</i>	Makedoniya		
<i>budan</i>	fors	<i>ফুট(vha)</i>	maratha		
<i>Być</i>	polyak				

O'zbek va bir necha turkiy tillarda *bo'l* so'zining sinonimi *et* bo'lib, semantik jihatdan so'z yo'q “narsaning bor bo'lishi”ni emas, “bor narsa/shaxsni boshqa amalga buyurish”ni bildiradi. Shunga qaramay bir necha dunyo tillarida *bo'l* so'zining et(moq) so'ziga shaklan o'xshash muqobillari mavjud ekan (2-jadval).

2-jadval

“Bo‘lmoq” hamda “et(moq)” fe’li munosabati

<i>et(moq)</i> fe’lining muqobillari	Tillar	<i>et(moq)</i> fe’lining muqobillari	Tillar	<i>et(moq)</i> fe’lining muqobillari	Tillar
<i>לִיְזָה (yiyeot)</i>	ivrit	<i>Être</i>	fransuzcha	<i>Esi</i>	latviya
<i>Esti</i>	esperanto	<i>Eívai (Einai)</i>	yunon	<i>בָּזָן (zeit)</i>	idish
<i>Enye</i>	Eve	<i>Eiko</i>	guarani		
<i>Essere</i>	ispan	<i>E</i>	gavayi		

Bundan xulosa qilish mumkinki, Mashrab g‘azallari, umuman, Sharq adabiyotida alif harfi Yagona Tangri, be harfi esa uning irodasi bilan yaratilgan barcha narsalarni bildiradi. Qizig‘i bu narsa, barcha tillarning birlamchi “xotira”sida aks etib, o‘z ma’nosini bildirib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004.
- Машраб. Библиография. (Тузувчи: У.Кўзиев) – Наманган: Mashrab, 2023.
- Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ НМК Бош таҳририяти, 1999.
- Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, 2002.
- Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари va уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2011.
- Тарозий А. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.
- Abdiyev R. A. O‘rta maktablarda Mashrab g‘azallari misolida lafziy san’atlarni o‘rgatish // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Toshkent – №. 8. – С. 103-108.
- Бойназаров, И. М., & Бобоназаров, А. А. (2024). Mantiqiy funksiyalarining minimallashtirishning Quine-McCluskey usuli: Quine-McCluskey Method of Minimization of Logic Functions.
- Фафуров, Иброҳим. Алиф // “Халқ сўзи” газетаси, 1990. 16 июль.